



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 18-mart, № 52 (9223)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## TINCHLIK, EZGULIK, BILIM VA MA'RIFAT MAYDONI

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilishi hamda iftorlik marosimida ishtirok etdi.



Tadbirda hududlardagi studiyalar orqali nuroniylar, olimu ulamolar, keng jamoatchilik vakillari ulandi. Shuningdek, turli millat va diniy konfessiyalar a'zolari, diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar vakillari ham qatnashdi.

Shu ulug' ayyom kunlariga barchamizni tinch-omon, sog'-salomat yetkazgani uchun Alloh taolaga behad shukronalar aytiladi.

chuqur his etish zarurligini ta'kidladi. Davrada O'zbekistondagi diplomatik korpus vakillari ham qatnashayotgani muqaddas dinimizning insonparvarlik va bag'rikenglik qadriyatlariga, mamlakatimizning ochiqlik siyosatiga hurmat ifodasi sifatida baholandi.

merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha o'ziga xos katta ilmiy maktab shakllanayotgani, mamlakatimiz o'zining qanchalik katta intellektual salohiyati borligini dunyoga namoyon eta olgani ta'kidlandi.

katta qiziqish uyg'otdi. Ular orasida qator davlatlar prezidentlari, parlament va hukumat rahbarlari, deputat va senatorlar, vazirlar, elchilar, ilm-fan va jamoat arboblari, diniy tashkilotlar rahnamolari bor. Markazni loyihalash, qurish va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashda Fransiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSh, Birlashgan Arab

Amirliklari, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Malayziya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa mamlakatlardan malakali mutaxassislar qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O'ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZINING RASMIY OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar! Muhtaram mehmonlar!

Avvalo, sizlarni, joylardagi studiyalar orqali bugungi iftorlik marosimida ishtirok etayotgan hurmatli nuroniylar, olimu ulamolar, keng jamoatchilik vakillari, butun xalqimizni muborak Ramazon oyi bilan yana bir bor chin qalbidan tabriklayman.

Shu ulug' ayyom kunlariga barchamizni tinch-omon, sog'-salomat yetkazgani uchun Alloh taolaga behad shukurlar bo'lsin!

Mehr-oqibat va ezgulik ramzi bo'lmish Ramazon oyida hammamiz birgalikda ko'plab savobli ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Davlat va nodavlat tashkilotlar, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Mahallalar uyushmasi, Musulmonlar idorasining "Vaqf" jamg'armasi, hududlardagi "Inson" markazlari, saxovatli tadbirkorlarimiz tomonidan kekka va nog'ironlar, kam ta'minlangan oilalarga, ko'makka muhtoj insonlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilmog'adi.

Tibbiyot bo'linmalari olis va chekka hududlarimizga borib, ayollar, bolalar va nuroniylarimizni ko'rikdan o'tkazmoqda, og'ir bemorlar operatsiya yo'li bilan davolanmoqda.

Mana shunday fayzu barakali kunlarda mamlakatimiz miqyosida iftorlik tadbirlarini o'tkazish ham yaxshi an'anamizga aylandi.

Albatta, bularning barchasi jamiyatimizda inson qadriyatini ulug'lash, tinchlik va umummilliy birlik mahitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bugungi iftorlik marosimida yurtimizdagi turli millat va diniy konfessiyalar namoyandalari ishtirok etayotgani ham shundan dalolat beradi.

Hozirgi g'oyat tahlilali zamonda tinchlik naqadar ulug' va bebaho ne'mat ekanini, 38 milliondan ziyod aholimizning yagona xalq, ahil bir oila bo'lib yashayotgani eng katta boyligimiz ekanini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Davramizda O'zbekistondagi diplomatik korpus vakillari ham qatnashayotganini biz dinimizning gumanistik va bag'rikenglik qadriyatlariga, davlatimizning ochiqlik siyosatiga hurmat-e'tibor ifodasi sifatida qabul qilamiz va ularga samimiy tiqalarimizni bildiramiz.

Qadri vatandoshlar! Bugungi Ro'zai Ramazon kunida barchamiz yana bir tom ma'noda tarixiy voqeaada ishtirok etmoqdamiz. Xalqimizning aql-zakovati, fidokorona mehnati bilan bunyod etilgan ulug'vor va noyob majmua — O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimini o'tkazmoqdamiz.

Ne-ne ajdodlarimizning orzu-niyatlari, armonlari ro'yobga chiqqan mana shunday unutilmas kun bilan, chinakam ilm-ma'rifat bayrami bilan hammangizni chin qalbidan tabriklayman. Mamlakatimizning uch ming yillik shonli

tarixi va boy madaniyatining, Yangi O'zbekiston imkoniyatlarining yorqin ko'zgusi bo'lgan ushbu betakror va buyuk majmua barchamizga, butun xalqimizga muborak bo'lsin!

Muhtaram do'stlar! Biz yurtimizda rivojlangan davlat, erkin jamiyat poydevorini bunyod etish uchun, eng avvalo, ilm va bilim, ta'lim va yana bir bor ta'lim, degan oliy maqsadni hayotimizga joriy etmoqdamiz. Zero, muqaddas dinimiz ham bizni doimo ilmu ma'rifatga da'vat etadi. Shu bois, Islom sivilizatsiyasi markazining Ulug'bek darvozasi peshtoqiga Qur'oni karimning "Iqra!" — ya'ni, "O'qil!" degan muborak oyatini muhrlab qo'ydik. Bu ilohiy so'zlar zahirida islom dinining asl ma'no-mazmuni mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Xabaringiz bor, bundan to'qqiz yil oldin mazkur majmuani barpo etish haqida maxsus qaror qabul qilib, amaliy ishlarni boshladik. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida e'lon qilingan bu ezgu tashabbusimiz jahon jamoatchiligi, ayniqsa, islom hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Biz bu har jihatdan ulkan loyihani amalga oshirish uchun shoshilmadik, yetti emas, yetmish marta o'ylab, uzoqni ko'zlab, tinimsiz izlandik. Nihoyat, qadimdan Toshkentni azimning ma'naviy markazi bo'lib kelgan Hazrati Imom majmuasi yonida, ko'rib turganingizdek, betakror arxitekturaga, chinakam milliy ruh va milliy qiyofaga ega bo'lgan sharqona shaharcha barpo etildi.

Ushbu Markazda O'zbekistonning qadimiy tarixi va sivilizatsiyasi durdonalarini bir paytning o'zida yagona ma'rifiy makonda ko'rish, shu asosda o'zbek xalqining intellektual va madaniy salohiyatini yaqqol anglash mumkin.

**Bu maskan bilan tanishgan har bir odam, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz islom dinining gumanistik mohiyatini anglab yetadi, o'zining qanday ulug' meros egasi ekanini his etib, qalbi g'urur va iftixorga to'ladi.**

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Xalqimizning ulkan madaniyatlar ta'ashgan mintaqada joylashgan yurtimiz zaminini Buyuk Ipak yo'li rivojida muhim o'rin egallagan. Ko'hna diyorumiz islomgacha bo'lgan davrda ham ilm-fan, ma'rifat markazi sifatida shuhrat qozongan. Qadimiy Turkiston o'lkasiga islom dini kirib kelgach, bu yerda hadis va kalom ilmi, musulmon huquqi, tasavvuf bo'yicha yirik maktablar shakllandi, o'nlab buyuk allomalar yetishib chiqdi.

Aniq va tabiiy fanlar sohasida o'z kashfiyotlari bilan jahonni hayratga solgan ulug' olimlarimiz asarlari ham islomiy muhit bag'rida vujudga kelgan. Dunyoga mashhur bu kitoblar "Bismillohir rahmonir rahim",

degan ilohiy so'zlar bilan boshlangani ularning muqaddas dinimizdan ilhom va kuch olib yaratilganini bildiradi. Nafaqat bizning yurtimiz, balki bepoyon mintaqamizning ma'naviy mulki bo'lgan ana shunday bebaho boylikni chuqur o'rganish va jahon miqyosida targ'ib etish maqsadida uni Islom sivilizatsiyasi, degan nom ostida birlashtirishga qaror qildik.

Albatta, hozirgi murakkab va og'ir sharoitda bunday yirik majmuani eng yuksak zamonaviy talablar darajasida yaratish oson bo'lmadi.

Biz Markaz qurilishini ilmiy tadqiqot va izlanish ishlari bilan barobar ravishda olib bordik. O'tgan davrda ko'hna merosimizga oid, bizga umuman noma'lum bo'lgan qancha-qancha noyob ma'lumotlarni kashf etdik.

Xalqaro ekspertlar e'tirof etganidek, bugun O'zbekistonda islom sivilizatsiyasi merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha o'ziga xos katta ilmiy maktab yaratishga erishdik. Naqadar katta imkoniyatlarimiz, intellektual salohiyatimiz borligini dunyoga namoyon eta oldik.

Bu bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak, arziydi.

Ushbu noyob majmua salkam 10 gektar hududda joylashgan bo'lib, binoning umumiy foydalanish maydoni 50 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Bu yerda "O'zbekiston zaminida islomgacha bo'lgan davr", "Birinchii va Ikkinchi Renessans", "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans poydevori" kabi ekspozitsiya zallari mavjud.

Albatta, ularning har biri haqida uzoq gapirish mumkin.

Muzey ekspozitsiyasini shakllantirish va boyitish bo'yicha ham katta ishlar qilindi. O'tgan yilning o'zida 1,5 mingdan ortiq ekspонат, jumladan, 800 ga yaqin qadimiy qo'lyozma, arxeologik topilma va tarixiy xaritalar ekspozitsiyaga joylashtirilgani ham shundan dalolat beradi.

Ayni vaqtda xorijiy auksion uylari, yirik kolleksioner va art dilerlar bilan hamkorlik o'rnatilib, 743 ta ekspонатning original, ya'ni asl nusxalari yurtimizga keltirildi.

Bunday ishlar ilgari tariximizda bo'lmagan edi. Bu ekspонатlarning har biri — buyuk o'tmish va madaniyatimiz, milliy o'zligimizning timsoli ekanini ta'kidlash lozim. Ularning barchasi zamonlar sinovidan mardona o'tib kelayotgan xalqimiz, millatimizning ongu tafakkuri, bunyodkorona mehnati, noyob mahorati haqida so'zlaydi.

**Tarix tilga kirgan, tarixdan saboq olingan joyda, albatta, bilim va ma'rifat, taraqqiyot va adolat bo'ladi. Hech qachon to'g'ri yo'ldan adashilmaydi!**

Markazning asosiy zali, ta'bir joiz bo'lsa, qalbi — bu, hech shubhasiz, muqaddas Qur'on zalidir. Bu yerda dunyodagi eng qadimiy 6 ta Qur'oni karimning biri bo'lgan mo'tabar Usmon Mus'hai

bugun o'zining yuksak maqomiga munosib sharafli o'rin topdi.

Shuningdek, ushbu zalda turli davrlarga oid nodir Qur'on qo'lyozmalari ham jamlangan. Shu muborak kunda barchamiz, Xudoning inoyati bilan, mana shunday noyob va muqaddas Usmon Qur'onining ilohiy sharofati bilan yurtimiz doimo tinch-osoyishta bo'lsin, hayotimiz qut-barakaga to'lsin, deb duo qilamiz.

Qadri do'stlar!

Islom sivilizatsiyasi markaziga 2025-yilning o'zida minglab xorijiy mehmonlar tashrif buyurgani uning hozirdanoq jahon miqyosida katta qiziqish va e'tibor uyg'otayotganini tasdiqlaydi. Mehmonlar orasida bir qator davlatlar prezidentlari, parlament va hukumat rahbarlari, deputatlar, senator va lordlar, vazirlar va elchilar, ilm-fan va jamoat arboblari, diniy tashkilotlar rahnamolari borligini ta'kidlash lozim.

Markazni loyihalash, qurish va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashda Fransiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSh, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Malayziya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa qator mamlakatlardan yuksak malakali mutaxassislar ham faol ishtirok etishdi.

Ushbu majmuani bunyod etishga munosib hissa qo'shgan loyihachi va quruvchilarga, mohir muhandislar, olimu ulamolarga, xorijiy hamkor va ekspertlarga, jumladan, O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha butunjahon jamiyati a'zolariga, barcha fidoyi insonlarga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Bunday yirik va murakkab madaniy inshootni qurishda homiylik yordamini ko'rsatgan mahalliy va chek etlik tadbirkorlar, madaniyat va sport namoyandalari alohida rahmat aytaman. Xususan, birinchi qatorida tashabbus ko'rsatib, zarur ma'blag' g'oya va noyob tarixiy ekspонатlar taqdim etgani uchun hurmatli vatandoshimiz, mashhur metseant va biznesmen Alisher Burhonovich Usmonovga samimiy tashakkur izhor etaman.

Xalqimiz bunday oliyanoblik, saxovat va e'tiborni yuksak qadrlaydi.

Bu ulug' ishga qo'shgan hissangizni hech qachon unutmaymiz.

Katta rahmat Sizga! Aziz yurtodoshlar!

Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etishga kirishar ekanimiz, men, dunyoning qayerida bo'lsam, tariximizga tegishli bir varaq qo'lyozma bo'lsa ham, bitta ekspонат bo'lsa ham topib, yurtimizga olib kelishni orzu qilgan va shu vazifani o'rtaga qo'yg'an edim. Ming shukrki, bugun ana shu maqsadimizga asta-sekin erishyapmiz. Bu ishlarni, albatta, davom ettiramiz.

## XALQIMIZNING KIMLIGINI, TARIXIMIZNI HAQQONIV AKS ETTIRGAN MUHTASHAM MAJMUA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-mart kuni O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, bu yerda yaratilgan sharoitlar, boy ekspozitsiyalar va yangi tashabbuslar bilan tanishdi.

Uzoq vaqtdan beri xalqimiz tomonidan katta qiziqish va intizorlik bilan kutilgan voqelik — O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi muborak Ramazon hayiti arafasida tashkil etilganida ham ramziy ma'no bor. Zero, ushbu muhtasham muassasa nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun munosib tuhfadir.

Ta'kidlash joizki, o'z milliy tarixi va madaniyatiga, intellektual va ma'naviy salohiyatiga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylash va boyitish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat hamda jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotida hal qiluvchi o'rin egallaydi.

Sharh Uyg'onish davri — Musulmon Renessansi davomida bugungi O'zbekiston zaminida yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning jahon ilm-fani, madaniyati, muqaddas islom dini rivogiga qo'shgan bebaho hissiy dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. O'rta asrlarda ona zaminimizda yaratilgan buyuk ilmiy g'oya va kashfiyotlar jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojida keskin bulirish yasagan.

Islom dini ushbu ulkan hissa qo'shgan, jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkirlar merosining tarixiy va zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish, mumtoz adabiyot va san'at namoyandalari ijodining insonparvarlik mohiyatini ochib berish markazning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Prezidentimizning

markazni barpo etish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surgan ezgu tashabbusi jahon jamoatchiligi, ayniqsa, islom hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi. Loyiha shoshilinch emas, chuqur o'ylangan, ilmiy tadqiqot va izlanishlar bilan uyg'un holda amalga oshirildi. Natijada Hazrati Imom majmuasi yonida betakror arxitekturaga, chinakam milliy ruh va milliy qiyofaga ega bo'lgan sharqona shaharcha qad rostlandi. Majmua 10 gektarlik maydonda barpo qilingan. Bino uzunligi 161 metrni, eni esa 118 metrni tashkil etadi. Uch qavatdan iborat. Gumbazining balandligi 65 metr, umumiy foydalanish maydoni esa 50 ming kvadrat metr. Bu kabi noyob ko'rsatkichlar uni "Ginnessning rekordlar kitobi"ga kiritish uchun ham asos bo'lmoqda. Markaz o'zining mahobati, maydoni va qamroviga ko'ra dunyoda islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyalarini o'rganish va targ'ib etishga qaratilgan eng katta muassasalardan biri sanaladi. Binoning quyi qavatidan restavratsiya va elektron nusxa olish laboratoriyasi, muzey ekspонатlari va nodir qo'lyozmalarni saqlash fondlari, 200 o'rinni zamonaviy kafeteriy, muzey vestibullari o'rin olgan. Ikkinchi qavatda islom olamining bebaho ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosidan namunalarini jamlagan qariyb 8 ming 350 kvadrat metrlik ko'rgazma zaliga ega muzey joylashgan. Shuningdek, 550 o'ringa mo'ljallangan anjumanlar zali ham shu qavatdan o'rin oldi.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O'ZBEKISTONDAGI ISLom SIVILIZATSIIYASI MARKAZINING RASMIY OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Jahonning turli mamlakatlarida saqlanayotgan noyob qo'lyozmalarni aniqlash va o'rganish uchun yana xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etamiz. Buning uchun zarur mablag' va imkoniyatlarni topamiz. Bu ishlarga mahalliy va xorijiy olimlar, yetakchi xalqaro ilmiy markazlarni jalb etamiz.

Markaz faoliyatini keng miqyosda yo'lga qo'yish maqsadida bu yerda AYSEKSO, IRSIKA, Oksford islom tadqiqotlari markazi, Fransiyadagi Temuriylar jamiyati, TURKSOY kabi xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ular uchun ofis xonalari tashkil etdik. Endi ular bilan hamkorlikni kuchaytirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib beramiz.

Markazda muqaddas dinimizning ezgu qadriyatlarini

asrab, diniy-ma'rifiy soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan O'zbekiston musulmonlari idorasi ham o'zining yangi qarorgohiga ega bo'ldi.

Bu dargohda islom merosini chuqur o'rganish, diniy xodimlar, imom-xatibalarning malakasini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ishlarini tashkil etish, o'ylaymanki, maqsadga muvofiqdir.

Biz yaqin kelgusida BMT qarorgohida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturiyid xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining taqdimotlarini ham o'tkazamiz.

Muxtasar aytganda, ushbu Markaz ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi faoliyatimiz uchun fundamental baza bo'ladi. O'zbekiston xalqaro islomshunoslik

akademiyasi talabalari yuqori kurslarni shu yerda o'qiydi, o'qituvchi-domlalar esa o'z bilim va malakasini oshiradi.

Markaz yoshlarimiz orasidan yangi xorazmiylar, beruniy va ulug'beklar, farg'oniy va ibn sinolar, buxoriy va termiziylar yetishib chiqishi uchun mustahkam ma'naviy maydon bo'lishi kerak.

Bu – barchamizning ezgu niyatimizdir.

Markaz o'zining mana shunday tarixiy missiyasini yuksak saviyada ado etishi uchun men ilm-fan va ma'naviyat fidoyilariga – hurmatli olim va tadqiqotchilarga, shoir va adiblar, diniy ulamolara, rejissyor va rassomlarga, jildkor yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman:

Islom sivilizatsiyasi markazida to'plangan har bir eksponat qanday bebaho boylik ekanini sizlar hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz. Ularni targ'ib etish, xalqimizga, dunyoga tanitishda ham, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Bu tengsiz boylikdan ilhomlanib, sizlar yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko'rsatuvlar: uch ming yillik tarix va madaniyatning so'nmas ovozi bo'lib dunyoga taralsin! Yangi O'zbekistonni tinchlik, ezgulik, bilim va ma'rifat diyori sifatida olamga tarannum etsin!

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun tarbiya va milliy g'urur maktabiga aylansin! Hurmatli anjuman qatnashchilari!

O'z davrida Mir Alisher Navoiy bobomiz Mirzo Ulug'bekning o'lmas merosi dunyo turguncha tursin, deb tilak bildirgan edi. Bizning ham orzu-maqсадimiz shunday: Islom sivilizatsiyasi markazi el-yurtimizga, jahon ahliga hamisha beminnat xizmat qilsin!

Mana shunday ulug' ishlarning bunyodkori bo'lgan mard va oliyanob xalqimiz doimo omon bo'lsin!

Muqaddas Ramazon oyida tuzatilgan ro'zalimiz, qilyotgan ibodatlarimiz dargohida qabul bo'lsin!

Yaratgan Parvardigor xalqimizni, Vatanimizni o'z panohida asrasin!

Barchangizga katta rahmat, doimo sog'-omon bo'linglar!

## TINCHLIK, EZGULIK, BILIM VA MA'RIFAT MAYDONI

Davlatimiz rahbari ushbu majmuani bunyod etishga munosib hissa qo'shgan loyihachi va quruvchilar, muhandislar, olimu ulamolara, xorijiy hamkor va ekspertlarga, jumladan, O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha butunjahon jamiyati a'zolariga, barcha fidoyi insonlarga minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, mazkur yirik va murakkab madaniy inshootni qurishda homiylik yordamini ko'rsatgan mahalliy va chet ellik tadbirkorlar, madaniyat va sport namoyandalari alohida rahmat aytdi.

Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etishga kirishar ekanimiz, men, dunyoning qayerida bo'lmasin, tariximizga tegishli bir yuraq qo'lyozma bo'lsa ham, bitta eksponat bo'lsa ham topib, yurtimizga olib kelishni orzu qilgan va shu vazifani o'rtaga qo'ygan edim. Ming shukrki, bugun ana shu maqsadimizga asta-sekin erishyapmiz. Bu ishlarni, albatta, davom ettiramiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Jahonning turli mamlakatlarida saqlanayotgan noyob qo'lyozmalarni aniqlash va o'rganish uchun yangi xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilishi ta'kidlandi. Bu ishlarga mahalliy va xorijiy olimlar, yetakchi xalqaro ilmiy markazlar keng jalb etildi.

Prezidentimiz markaz ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi faoliyat uchun fundamental baza bo'lishiga alohida urg'u berdi. Bu yerda O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabalari yuqori kurslarda o'qishi, o'qituvchi-domlalar esa o'z bilim va malakasini oshirishi nazarda tutilgan.

Markaz o'zining tarixiy missiyasini yuksak saviyada ado etishi ilm-fan va ma'naviyat fidoyilariga ham bog'liq. Shu bois davlatimiz rahbari olim va tadqiqotchilarni, shoir va adiblar, diniy ulamolara, rejissyor va rassomlarni, jurnalistlarni, ijodkor yoshlarga murojaat qildi:

Bu tengsiz boylikdan ilhomlanib, sizlar yaratadigan ilmiy tadqiqotlar, badiiy kitob, kino va teatr asarlari, kartina va ko'rsatuvlar uch ming yillik tarix va madaniyatning so'nmas ovozi bo'lib dunyoga taralsin! Yangi O'zbekistonni tinchlik, ezgulik, bilim va ma'rifat diyori sifatida olamga tarannum etsin! Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun tarbiya va milliy g'urur maktabiga aylansin! – dedi Prezidentimiz.

So'zining yakunida davlatimiz rahbari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi el-yurtimiz va jahon ahliga hamisha beminnat xizmat qiladigan tinchlik, ezgulik, bilim va ma'rifat maydoni bo'lib qolishiga ishonch bildirdi.

Itforlik marosini Qur'oni karim tilovati bilan davom etdi. Muborak oyda tutilayotgan ro'zalar va qilingan ibodatlar qabul bo'lishi, yurtimizdagi tinchlik va farovonlik bardavomligini tilab, duolar qilindi.

"Xalq so'zi".

## Onlayn muloqot HAMKORLIK IZCHIL KENYAMOQDA



**Kecha** "O'zbekiston – Indoneziya" va "Indoneziya – O'zbekiston" hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlari a'zolarining onlayn shaklda uchrashuvi o'tkazildi.

Muloqot davomida ikki mamlakat o'rtasidagi parlamentlararo munosabatlarni mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiya va eksport sohalarida hamkorlikni faollashtirish hamda yuqori darajadagi tashriflarni tashkilashtirish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekistonning Indoneziya bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ta'lim, turizm hamda madaniy-

gumanitar sohalardagi aloqalari izchil kengayib borayotgani ta'kidlandi. Shuningdek, o'zaro tashriflar doirasida erishilgan kelishuvlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlashda parlamentlarning o'rni muhim ekani alohida aytiladi. Uchrashuv yakunlari bo'yicha parlamentlararo muloqotni yanada faollashtirish va izchil davom ettirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

## Tadbir

O'tgan yilning sentabr oyida Nyu-York shahrida tashkil etilgan BMT Bosh Assambleyasi tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish o'rtasida oliy darajadagi uchrashuv o'tkazildi. Unda O'zbekiston va BMT o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish yuzasidan erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lidagi qo'shma loyihalarni amalga oshirish maqsadida 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha hamkorlik dasturini qabul qilishga kelishilgan edi.

## XALQIMIZNING KIMLIGINI, TARIXIMIZNI HAQQONII AKS ETTIRGAN MUHTASHAM MAJMUA

Majmua binosi milliy me'morchilik an'analari bilan uyqushgan. Unga to'rt tomondan to'rt asosiy portal orqali kirish mumkin. Bino portallari va peshqoqlari Samarqand, Buxoro, Termiz, Shahrisabz, Xiva, Toshkent, Qo'qon va Qoraqalpog'iston me'morchiligi an'analari asosida qurilgan.

Markazning asosiy darvozasi tomonidan o'rin olgan foye – "Shon-shuhrat zali"ning perimetri bo'yab 14 ta yarim ovalsimon ravoq joylashgan. Ularda Birinchi va Ikkinchi Renessans davri allomalari – Ibn Sino, Beruniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, shuningdek, ma'rifatparvar jaddilar siymolarini ko'rish mumkin.

Ayni paytga qadar markazda "Sivilizatsiyalar – shaxslar – kashfiyotlar" g'oyasi ostida 4000 dan ziyod mahalliy va xorijiy olimlar hamda mutaxassislar ishtirokida 800 dan ortiq ilmiy loyihalar bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Ilmiy-innovatsion loyihalarni amalga oshirishga 100 dan ortiq tashkilotlar, mahalliy hokimliklar ijrochi sifatida jalb etildi.

Muzeyda "Qur'oni karim" zali, "O'zbekiston zaminida islomgacha bo'lgan davr", "Birinchi va Ikkinchi Renessans", "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans poydevori" ekspozitsiyalari o'rin olgan.

Muzey devorlari bo'yab o'tadigan yaxlit "Vaqt devori" innovatsion loyihasi 250 metrni tashkil qiladi. Bu devorda xalqimizning kamida 3000-yillik davlatchiligi tarixi barqaror, miniatyuralar va mahobatli rangtasvir asarlari ko'rinishida aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu devor bo'yab turli davrlarga oid eksponatlar, numizmatika namunalari, xaritalar, videoroliklar, interaktiv o'yinlar o'rin olgan.

"O'zbekiston zaminida islomgacha bo'lgan davr" ekspozitsiyasida qadimgi Xorazm va Farg'ona, Baqriya, Choch va So'g'd hududida yuz bergan jarayonlar aks etadi. "Birinchi va Ikkinchi Renessans" ekspozitsiyasida islomning Movarounnahrda tarqalishi, uning mahalliy aholi madaniyatiga ta'siri, islom ilmlari rivojiga hissa qo'shgan olimlar merosi ko'rsatildi. Amir Temur hukmronligi va o'zbek xonliklari zamonidagi madaniy-ma'rifiy hayot aks ettirildi. "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans poydevori" ekspozitsiyasida so'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaralari, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi tarixiy o'zgarishlar o'z aksini topgan.

Shuningdek, binoning ikkinchi qavatida markaz platformasi, xorijiy tashkilotlar vakillari uchun ajratilgan maxsus xonalar, ko'rgazma zallari, O'zbekiston musulmonlari idorasi, qator ilmiy tadqiqot muassasalari ofislari ham joylashgan.

Prezidentimiz O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga bu galgi tashrifni "Qur'oni karim" zalini ziyorat qilishdan boshladi. "Qur'oni karim" zali, ta'bir joiz bo'lsa, markazning ma'naviy qalbi hisoblanadi. Bu yerda majmuaning nodir javohiri, dunyodagi eng qadimiy o'litta Qur'oni karimdan biri bo'lgan mo'tabar Usmon Mus'hafi o'rin olgan.

Zal markazidagi ulkan gumbaz ostida maxsus mepping shou-gologramma yaratilgan. Unda arab harflari hamda o'yatlar go'yo yuqoridan nozil bo'layotgandek aks etadi.

Markaz tamal toshi qo'yilganidan 2025-yilga qadar markaz fondidagi qadimiy manbalar soni 2000 dan ortiq, nodir Qur'on qo'lyozmalari esa 60 tadan ziyodga yetdi. Ularning barchasi xalqimiz va xalqaro auksionlardan xarid qilingan. Ushbu vitrinalarda xalqaro auksionlardan sotib olingan Qur'on nusxalari ham namoyish etilmoqda. Bu yerda turli davrlarga mansub qator nodir Qur'on qo'lyozmalari joylashtirilgan.

Shundan so'ng Prezidentimizga muzeyga tashrif buyuruvchi mehmonlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil etish ishlari taqdimot qilindi.

Ayni paytda markazga keluvchilar uchun an'anaviy gidlar bilan birga maxsus robot-gidlar, shuningdek, audio va radiogidlar xizmati ham yo'lga qo'yilmoqda.

Davlatimiz rahbari markaz majmuasiga tashrif buyuruvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ekskursovodlar dasturi, tarqatma materiallar, muzey ekspozitsiyalarida qo'llanilgan eng so'nggi texnologiyalar bilan tanishdi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugungi kunda xorijdan tashrif buyurgan nufuzli mehmonlar, xalqaro ekspertlar va olimlar e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Jumladan, 2025-yilda markaz Fransiyanning Avitsenna mukofotiga sazovor bo'ldi. AQShdagi Smitson institutining "Smithsonian Magazine" nashri talqiniga ko'ra, 2026-yilda dunyoda eng katta qiziqish bilan kutilgan 10 ta muzeydan biri sifatida e'tirof etildi. AQShning xalqaro sayohat va madaniyat nashri – "Condé Nast Traveler" tomonidan 2026-yil iyun oyida tashrif buyurish mumkin bo'lgan muzeylar ro'yxatiga kiritildi. "BBC Travel" dasturida ushbu muassasa dunyodagi eng ko'p kutilgan muzeylar qatoridan joy oldi.

Markazda tashrif buyuruvchilarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko'rsatish uchun tarqatma materiallar, broshyuralar va kitoblar hozirlangan. O'zbekiston muzey amaliyotida ilk bor xalqaro ekspertlar jalb etilgan holda zamonaviy kimyo-fizik laboratoriyada barcha muzey ashyolarining kimyoviy tarkibi va yaratilganlik vaqti aniqlanib, ularning texnologik pasportlari tayyorlangan.

Xalqaro ISO standartlari asosida eksponatlar raqamlashtirilib, yagona elektron platformaga joylashtirilgan. YUNESKO va IKOM talablari, shuningdek, jahonning eng mashhur muzeylari tajribasi asosida eksponatlarining 8 yo'nalishdagi etiketaj etalonlari va tasniflari yaratilgan. Har bir eksponatga QR-kodlar joylashtirilishi natijasida tashrif buyuruvchilar mobil telefon yoki planshet orqali ularning video va audio kontenti bilan dastlab 3 tilda, keyinchalik esa 8 tilda tanishish imkoniga ega bo'ladi.

Taqdimotda "Har kim uchun ochiq muzey" konsepsiyasi asosida markazni ijtimoiy integratsiya maydoniga aylantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Kelgusida barcha eksponatlarga

maxsus elektron chiplar o'rnatish, ko'zi ojiz insonlar eksponatga yaqinlashganda audiogid orqali ma'lumotni avtomatik eshitish tizimini joriy etish, "Bluetooth" mayuqchalari yordamida bino ichida mustaqil harakatlanish imkoniyatini yaratish rejalashtirilgan.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, markazga bir kunda o'rtacha 5 ming nafarga yaqin tashrif buyuruvchilar kelishi kutilmoqda.

Markaz va muzeyning to'laqonli ravishda xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritishi uchun hozirgi kunda 400 dan ziyod xodimlar zarur bo'ladi. Bugungi kunda markazda maxsus tayyorgarlikdan o'tgan 100 dan ortiq nazoratchilar va 30 dan ziyod ekskursovodlar faoliyat yuritmoqda.

Shundan keyin Prezidentimiz markaz binosining ikkinchi qavatida O'zbekiston musulmonlari idorasi faoliyatini uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Tashrifning navbatdagi qismida davlatimiz rahbari markaz kutubxonasini ko'zdan kechirdi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi kutubxonasida yaratilgan imkoniyatlar har qanday mehmonda chuqur taassurot qoldiradi. Ziyo maskanining umumiy maydoni 3 ming 105 kvadrat metrni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda uning fondi 45 ming 150 tadan ziyod adabiyotlarni qamrab olgan bo'lib, shundan 2 ming 609 tasi nodir nashrlardan iborat. Bundan tashqari, kutubxonada 350 mingta elektron adabiyot mavjud. U bir vaqtning o'zida 310 nafar foydalanuvchiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Olimlar va professorlar uchun alohida 4 ta xona tashkil qilinib, ularning ilmiy faoliyat olib borishi uchun barcha zamonaviy texnika va qulayliklar yaratilgan.

Hozirda kutubxona fondini O'zbekistonning ulug' mutafakkir olimlari hayoti va ijodi, shuningdek, ular tashkil etgan ilmiy maktablar to'g'risidagi noyob va qimmatli nashrlar bilan boyitish maqsadida qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu yerda imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun maxsus xona tashkil etilgan bo'lib, ular uchun dasturlar, maxsus printer va qurilmalar o'rnatilgan hamda Brayl yozuvidagi 1000 dan ortiq adabiyotlar olib kelingan.

Kutubxona 28 turdagi eng zamonaviy kutubxona texnikalari bilan jihozlangan. Ovoz o'tkazmaydigan gemmetik kabinalarda foydalanuvchilar boshqalarga xalal bermagan holda telefonda suhbatlashishi yoki bemalol mulotla qilishi mumkin.

Davlatimiz rahbari markaz hurrida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-ma'rifiy platforma faoliyatini bilan ham tanishdi. Ayni paytda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Vatanimiz tarixi, buyuk allomalarimiz merosini o'rganish va keng targ'ib etish borasida qator xalqaro tashkilotlar, xorijiy olimlar, yirik ommaiy axborot vositalari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Bu yerda IECESO, IRCICA, Oksford islom tadqiqotlari markazi, Fransiyadagi Temuriylar jamiyati, TURKSOY kabi xalqaro tashkilotlar uchun alohida xonalar ajratilgan bo'lib, ularning barchasi

zamonaviy asbob-uskunalar, texnika vositalari bilan jihozlangan.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Vatanimizning boy tarixiy merosi, buyuk ajdodlarimiz yaratib qoldirgan duralonlarni ta'dqiq etish bilan shug'ullanadigan olimlar, ilmiy-ma'rifiy tashkilotlar uchun doimiy tarzda ochiq bo'lishi kerak, – dedi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, ushbu infratuzilma mahalliy olimlarimiz va xorijiy tashkilotlar vakillari hamjihatlikda ilmiy tadqiqotlar olib borishlari uchun qulay muhit yaratadi.

Davlatimiz rahbariga so'nggi paytlarda xorijdan keltirilgan, xarid qilingan, shuningdek, turli xalqaro tashkilotlar va homiyalar tomonidan hadya etilgan tarixiy artefaktlar haqida ham ma'lumot berildi.

Aynan Prezidentimizning tashabbusi bilan xorijdagi madaniy boyliklarni O'zbekistonga qaytarish bo'yicha amaliy ishlar boshlangan edi. O'tgan yilning may-iyun oylarida Buyuk Britaniyadagi "Sotheby's" va "Christie's" singari auksion uylari, art-dilerlar, shaxsiy kolleksionerlardan 700 dan ortiq artefaktlar sotib olindi. Shuningdek, turli muassasalar, tashkilotlar, homiyalar tomonidan 1000 dan ortiq artefaktlar hadya qilindi.

Xususan, somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, temuriylar davriga tegishli ko'plab nodir artefaktlar alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, somoniylar davrida ishlangan kumush barkash, temuriylar davriga oid kulochlik buyumlari va qurol-aslahalar, Alisher Navoiy hayotligida ko'chirilgan qo'lyozmalar, yurtimiz hududidan topilgan ko'plab zarqarlik buyumlari va tangalar haqida azoq gapirish mumkin. Umuman, tashrif chog'ida mazkur markazning yurtimiz tarixi va madaniy merosini chuqur o'rganish, asrab-avaylash va keng targ'ib etish, islom dinining haqiqiy insonparvarlik va ma'rifatparvarlik mohiyatini ochib berish, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ilmiy va ma'naviy boyliklarni xalqaro miqyosda namoyon etish borasidagi ulkan salohiyati yana bir bor yaqqol namoyon bo'ldi.

Bugun o'zligimizni anglash yo'lida katta tantana bo'ldi. Ming shukrki, to'qqiz yil davomida niyat qilib, izlanib, harakat qilib, xalqimizning kimligini, tariximizni haqqoniy aks ettiradigan majmuani barpo etdik. Bu yerga kelgan har bir inson, ayniqsa yoshlarimiz, qanday ajdodlar avlodi ekanimizni bilishi, anglashi kerak. Bu ulkan loyiha oddiy bir chizma emas. Uni yurak chizgan, mehr chizgan, orzu va armonlar chizgan. Qur'oni karim saqlanadigan muqaddas zal ham shunchaki yaratilgan emas. U yurakdan tug'ilgan, xalqimizning orzu-intilishlari va buyukligini namoyon etish istagidan paydo bo'lgan maskandir. Bu loyiha buyuk xalqimizning asl qiyofasini ro'yobga chiqarishga qaratilgan azoq niyatlar mahsulidir, – dedi Prezidentimiz.

Tashrif yakunida davlatimiz rahbari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining Faxriy mehmonlar kitobiga dastxat qoldirdi.

"Xalq so'zi".

## OITSga qarshi kurashish dasturlari monitoringi kuchaytiriladi

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova BMTning OIV/OITS bo'yicha Birlashgan dasturi (UNAIDS)ning mintaqaviy direktori Imonn Merfi bilan uchrashuv o'tkazdi.

### Uchrashuv

Muloqotda UNAIDSning jahon miqosida OIV infeksiyasi yangi holatlarining oldini olish, OIVga chaligan shaxslar uchun davolash, parvarishlash va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini kengaytirish, shuningdek, epidemiyaniing ijtimoiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan faoliyati alohida ta'kidlandi. Ushbu tashkilotning O'zbekistondagi faoliyati doirasida milliy sog'liqni saqlash tizimi salohiyatini mustahkamlash, OITSga qarshi kurashish dasturlarini monitoring qilish va baholashni takomillashtirish, texnik hamda

moliyaviy resurslarni jalb etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar urg'ulandi.

Imonn Merfi O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash, inkluziv qonunchilikni rivojlantirish, milliy qonunchilikni xalqaro majburiyatlar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, ijtimoiy himoya, jamoat salomatligi va gender tenglikni ta'minlash sohalarida erishilayotgan yutuqlarni yuqori baholadi.

Uchrashuv yakunida O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash hamda o'zaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha yakdill fikr bildirildi.

## TA'LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH – ZAMON TALABI

IIV ixtisoslashtirilgan maktab-internatida "Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion rivojlanish va yangi avlod malakalari" mavzuida respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.

### Anjuman

Ushbu ta'lim dargohi "Science and Innovation" xalqaro ilmiy jurnali bilan hamkorlikda uyushtirgan tadbirida Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Bahrom Abdullayev hamda xona vakillari, olimlar va mutaxassislar qatnashdi.

Anjumanda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, "STEAM"

va fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari muhokama markazida bo'ldi. Shuningdek, tadbir ishtirokchilari IIV ixtisoslashtirilgan maktab-internat faoliyatini, o'quv jarayoni va o'quvchilar uchun tashkil etilgan o'tgarak mashg'ulotlari bilan ham tanishdi.

Yakunda ta'lim sifatini oshirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy qilish yuzasidan takliflar bildirildi.

"Xalq so'zi".

## YANGI YO'NALISHLAR VA ASOSIY VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

2025-yil 24-oktabr kuni esa Toshkent shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilganining 80 yilligiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tgan va unda 2030-yilga qadar BMT bilan hamkorlikning strategik yo'nalishlarini belgilab beruvchi hamkorlik dasturi imzolangan edi.

Kuni kecha poytaxtimizda BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha 2026 – 2030-yillarga

mo'ljallangan hamkorlik dasturini amalga oshirishga qaratilgan Boshqaruv qo'mitasining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi Erkin Gadoyev qatnashdi.

Yig'ilishda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik dasturi

doirasida erishilgan natijalar sarhisob etilib, 2026 – 2030-yillarga mo'ljallangan yangi hamkorlik yo'nalishlari va ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Kelgusida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida hamkorlikni yanada kuchaytirish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

"Xalq so'zi".

## O'rganish YOSHLARNING BANDLIGI QANDAY TA'MINLANYAPTI?

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Ozrigul Qo'ziyeva boshchiligidagi ishchi guruh Samarqand viloyatida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, bandlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar holatini o'rganmoqda.

Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, "Bitiruvchi yoshlar bandlik dasturi" doirasiga 51 718 nafar yigit-qiz qamrab olingan bo'lib, shulardan 37,8 mingining bandligi ta'minlangan.

Shu bilan birga, "og'ir toifa"dagi 12 316 nafar ishsiz bilan manzilli sa'y-harakatlar olib borilib, ularning katta qismi ishli qilingan. 3 356 kishi doimiy ishga joylashtirilib, 4 837 kishi o'zini o'zi band etgan. 1 676 kishiga tadbirkorlik uchun kredit ajratilgan va 1 255 kishi mehnat migratsiyasiga yuborilgan.

O'tgan yil davomida tijorat banklari tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsad

Dunyo nigohi

# “FORBES”: ISLOMNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI ILGARI SURUVCHI PLATFORMA

Dunyodagi eng nufuzli va mashhur iqtisodiy nashrlardan biri – Amerikaning “Forbes” jurnalida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ochilishiga bag'ishlangan maqola e'lon qilindi.



Jurnalda ta'kidlanishicha, geosiyosiy beqarorlik va iqtisodiy muammolar yuz berayotgan pallada O'zbekiston o'zining madaniy va strategik ta'sirini kuchaytirish orqali muhim qadam tashladi. Yangi barpo etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatning boy tarixiy merosi va butun Yevroosiyo bo'ylab islomiy intellektual va madaniy an'analarni shakllantirishdagi rolini namoyish etadigan muhim loyihaga aylangan.

Markaz madaniy vazifadan tashqari, radikalashuvga qarshi kurashish, inklyuziv islomni targ'ib etish, mintaqaviy barqarorlik va xalqaro tinchlik asosidagi me'yorlarni ilgari surish uchun faol platformaga aylanadi. Markaz tarixiy meros mamlakatning strategik ta'sirini kuchaytiruvchi vositaga aylanishi mumkinligini namoyish etmoqda.

Markazning ochilishi O'zbekistonning xalqaro maydonda AQSh va Yevroosiya bo'ylab islomiy intellektual va madaniy an'analarni shakllantirishdagi rolini namoyish etadigan muhim loyihaga aylangan.

“Forbes”da yozishlaricha, shiddatli texnologik o'zgarishlar va global keskinliklar davrida ushbu markaz musulmon dunyosida konstruktiv muloqot maydoni bo'lib, Markaziy Osiyoning bag'rikeng islom modelini ilgari surish uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

Nashrdan qayd etilishicha, markaz nafaqat madaniy, balki strategik vazifani ham bajaryapti. “Mamlakatning islom sivilizatsiyasi merosini targ'ib qilishi O'zbekistonning Yevroosiyo markazini Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo bilan bog'laydigan madaniy hamda diplomatik ko'priq sifatidagi rolini mustahkamlaydi, ko'p mintaqaviy aloqalarga hissa qo'shadi”, deya fikr bildirilgan maqolada.

“Dunyo” AA.



# ERON XALQIGA NAVBATDAGI INSONPARVARLIK YORDAMI

O'zbekiston Respublikasi tomonidan Eron xalqiga navbatdagi insonparvarlik yordami yetkazildi. Ushbu ko'mak ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hamjihatlik aloqalarining amaldagi ifodasi bo'ldi.

## Ko'mak

Mujtabo Rubzaxana ishtirok etdi. Tadbir davomida so'zga chiqqan rasmiylar ko'rsatilgan yuksak e'tibor va ko'mak uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga samimiy minnatdorlik bildirib, ushbu xayriy tashabbus murakkab vaziyatlarda xalqlarimiz o'rtasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlash an'analarning amaldagi yorqin namunasi ekanini e'tirof etishgan. Ma'lumot uchun eslatib o'tamiz, O'zbekiston mintaqadagi qo'shni va qardosh davlatlarga qiyin pallalarda mustam ravishda insonparvarlik ko'maklarini ko'rsatib kelmoqda.

Mujtabo Rubzaxana ishtirok etdi.

Tadbir davomida so'zga chiqqan rasmiylar ko'rsatilgan yuksak e'tibor va ko'mak uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga samimiy minnatdorlik bildirib, ushbu xayriy tashabbus murakkab vaziyatlarda xalqlarimiz o'rtasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlash an'analarning amaldagi yorqin namunasi ekanini e'tirof etishgan.

Ma'lumot uchun eslatib o'tamiz, O'zbekiston mintaqadagi qo'shni va qardosh davlatlarga qiyin pallalarda mustam ravishda insonparvarlik ko'maklarini ko'rsatib kelmoqda.

“Xalq so'zi”.

# KELAJAKKA QO'YILGAN STRATEGIK QADAM

Mamlakatimizda sanoatni jadal rivojlantirish, tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Ayniqsa, tog'-kon va metallurgiya sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.



## Munosabat

Shu yil 16-mart kuni Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasining birinchi navbati ishga tushirilishi bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilganini yaqqol namoyon etdi. Qiymati 2 mlrd. 700 mln. dollar bo'lgan ushbu yirik loyiha nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik sanoat majmualaridan biri sifatida strategik ahamiyatga ega. Fabrikaning yiliga 60 mln. tonna ma'danni qayta ishlash

va 900 ming tonna mis konsentratini ishlab chiqarish quvvatiga egaligi uni dunyodagi yetakchi sanoat obyektlari qatoriga olib chiqadi.

Eng muhimi, mazkur loyiha orqali tabiiy boyliklarni xomashyo holatida emas, balki chuqur qayta ishlangan mahsulot sifatida iqtisodiyotga jalb qilish imkoniyati kengaymoqda.

Yana bir muhim jihati shundaki, keyingi yillarda qimmatbaho metallarni xomashyo holatida eksport qilishdan bosqichma-bosqich voz kechilib, ularni mamlakatimizda qayta ishlash yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar

yaratishga o'tish ta'minlanmoqda. Masalan, bugungi kungacha yiliga 100 ming tonna misni chuqur qayta ishlash yo'lga qo'yilgan bo'lsa, yaqin yillarda bu ko'rsatkich bir necha barabarga oshishi kutilyapti.

Mazkur megaloyihada Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh kabi davlatlarning yetakchi kompaniyalari ishtirok etgani, zamonaviy texnologiyalar va raqamli boshqaruv tizimlari joriy qilingani bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Barcha ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi va sun'iy intellekt asosida boshqarilishi natijasida energiya sarfi 10 foizga, tannarx esa 15 foizga kamayishi kutilmoqda. Bu – sanoatni zamonaviy bosqichga olib chiqishda raqamli transformatsiya va innovatsiyalarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanidan dalolat.

Ayniqsa, loyiha doirasida 6 mingdan ziyod yuqori daromadli ish o'rnlari yaratilishi rejalashtirilgani

aholi bandligini ta'minlashda alohida rol o'ynaydi. Bundan tashqari, sohada talab qilinadigan yuqori malakali mutaxassislariga ehtiyojni qondirish maqsadida Olmaliq texnika instituti, “Moskva po'lat va qorishmalar instituti” universiteti filiali, Geologiya fanlari universiteti kabi ta'lim muassasalarining tashkil etilgani, dual ta'lim tizimi va xalqaro hamkorlik dasturlarining yo'lga qo'yilgani ijobiy natijalar bermoqda.

Mamlakatimizda investitsiyalarni jalb qilish ko'lami kengayib borayotgan bir paytda, ularning haqiqiy iqtisodiy samaradorligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, endilikda investitsiya loyihalari faqat ishga tushirish emas, balki ularning to'liq quvvatda ishlashi, eksportga yo'naltirilishi va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishi bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatilishi eng to'g'ri yondashuvdir. “Yagona milliy loyiha

boshqaruvi” platformasining joriy etilishi esa har bir loyihani uch yil davomida monitoringdan o'tkazish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Olmaliqda ishga tushirilgan 3-mis boyitish fabrikasi yirik sanoat obyekti bo'libgina qolmay, balki Yangi O'zbekiston iqtisodiy siyosatining amaliy natijasi, sanoat taraqqiyotining yangi bosqichi va kelajakka qaratilgan strategik qadamdir. Bu kabi megaloyihalar orqali mamlakatimizda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rnlari yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga mustahkam zamin yaratilmoqda.

**Odiljon MAMATKARIMOV,**  
Oliy Majlis Senatining  
Xalqaro munosabatlar, tashqi  
iqtisodiy aloqalar, xorijiy  
investitsiyalar va turizm masalalari  
qo'mitasi raisi o'rinbosari.

## Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

# INSON SHA'NI, QADR-QIMMATI VA HUQUQLARI HIMOYASINING KAFOLATI



## Jamoat tartibini ta'minlash – ustuvor masala

Majlisda bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan – “O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, loyihani ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan berilgan taklif va mulohazalar, shuningdek, tegishli vazirlik va idoralarning fikrlari asosida uning ayrim normalari aniqlashtirildi hamda tahriri jihatdan takomillashtirildi.

Qonun loyihasi bilan telekommunikatsiya tarmoqlari yoki Internet jahan axborot tarmog'i orqali uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqorat o'zgaritish va fuqarolar osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlarni sodir etish, harbiy harakatlarda ishtirokni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish, shaxsning o'zi sodir etgan huquqbuzarligini ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tarqatish, shuningdek, ijro harakatlari davomida xatlangan mulk bilan bog'liq qonunga xilof harakatlar uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash nazarda tutilmoqda.

Bu orqali axborot makonida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolar osoyishtaligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni targ'ib qilish holatlarining oldini olish, shuningdek, mazkur turdagi huquqbuzarliklar bo'yicha javobgarlikda mavjud huquqiy bo'shliqni bartaraf etish ko'zda tutilmoqda.

**Saydullo AZIMOV,**  
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:  
– Mazkur qonun loyihasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda huquqiy tartibotni mustahkamlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, axborot makonida odob-axloq me'yorlariga rioya etilishini kuchaytirish, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini himoyalash, yangi turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika mexanizmlarini samarali ishlatish hamda huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

**Sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy prinsiplari**  
Deputatlar “Sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirish to'g'risida”gi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda muhokama qildi.

Unda sudlar mustaqilligini ta'minlashga oid muhim masalalar – sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirishning umumiy qoidalari, asosiy prinsiplari

takomillashtirilmog'da. Shuningdek, moliyalashtirishning manbasi, asosi va o'ziga xos jihatlari aniqlashtirilyapti.

Xususan, Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasining sud hokimiyati organlari moliyalashtirishga oid qismini sud hokimiyati organlari bilan kelishish tartibi hamda ushbu loyihaning Qonunchilik palatasidagi muhokamalarida Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud, Sudyalar oliy kengashi vakillarining ishtiroki nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadlari prognozining ijrosidan kelib chiqib sud hokimiyati organlarini moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirish mumkin emasligi, sud hokimiyati organlari faoliyati uchun ajratilgan mablag'larni taqsimlash va tasarruf etish tartiblari belgilanyapti.

**Ulug'bek QOBULOV,**  
Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zosi:  
– Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi juda muhim. Mazkur hujjat sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlashga, odil sudlovga erishish darajasini oshirishga yo'l ochadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Korporativ munosabatlarning qonuniy asoslari takomillashtirilmog'da

Majlisda korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda tijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, yuridik shaxslarning o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim tashkiliy-huquqiy shakllarini tugatish va korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mikroqarzlarni reklama qilishda va marketing kontentida iste'molchilarning asosiy e'tibori bunday kredit mahsulotlarini olish kelgusida yuqori moliyaviy majburiyat keltirib chiqarishi mumkinligiga emas, balki uni tez va oson olish imkoniyatiga qaratilyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan “Reklama to'g'risida”gi Qonunga aholiga taklif etiladigan kreditlar, jumladan, mikroqarzlarni reklamasida qarz majburiyatlarini bajarib berish moliyaviy xatarlarini keltirib chiqarishi mumkinligi haqida majburiy ogohlantiruvchi matn joylashtirilishi shartligini nazarda tutuvchi qo'shimcha kiritilmoqda. Bunda ogohlantirish reklama maydoni yoki vaqtning kamida 10 foizini tashkil qilishi lozimligi belgilanyapti.

## Shuhrat SHARAFUTDINOV, Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Qonun loyihasining ahamiyatli jihati shundaki, u moliyaviy xizmatlar reklamasini yanada tartibga solish, aholining kredit bilan bog'liq xatarlar haqidagi xabardorligini oshirish, mas'uliyatli qarz olish madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib, undagi ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berdi. Mutasaddilar barcha savollarga tushuntirishlar berib o'tdi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

## Sanoat xavfsizligiga mas'uliyatli yondashuv

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – xavfli ishlab chiqarish obyektlari va potensial xavfli obyektlarning sanoat xavfsizligi yo'nalishidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Aytilganidek, keyingi yillarda sanoat xavfsizligi bo'yicha munosabatlarda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Yangi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, yuqori xavfli texnologiyalarning joriy etilishi, shuningdek, avariyalari va baxtsiz hodisalar tahliili mazkur sohada qonunchilikni yanada takomillashtirish va zamon talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bois 2006-yilda imzolangan amaldagi qonun to'liq qayta ishlab chiqilib, uni yangilangan tarzda qabul qilish nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasida xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimining auditini joriy etish taklifi ilgari surilyapti. Mazkur audit orqali korxonalarda sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimining belgilangan talablarga muvofiqi baholanib, noxush hodisalar va avariyalarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligi tahlil qilinadi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlar ishlab chiqiladi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan qator savollar ko'tarildi.

## Dilmurod ARTIYQOV, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:

– Qonun loyihasida aholi xavfsizligini ta'minlash bilan birga tadbirkorlar manfaatlari ham yetarli darajada inobatga olinganmi? Masalan, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya yoki baxtsiz hodisa sodir bo'lganda uning texnik sabablarini tekshirish bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'liq tadbirkor zimmasiga yuklash qanchalik adolatli? Shuningdek, atraksionlarni davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazmaslik yoki mas'ul xodimlarni tayyorgarlik va attestatsiyadan o'tkazmaslik uchun yuridik shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari darajasida jarima qo'llanishi mutanosiblik prinsipi qay darajada mos keladi?

Qonun tashabbuskorlari bu bo'yicha atroflicha tushuntirish berib, ko'tarilgan masalalarga qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida alohida e'tibor qaratilishini ma'lum qildi. Ta'kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi sanoat xavfsizligiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish, xavfli ishlab chiqarish obyektlari bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlarning mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

## Kreativ iqtisodiyot subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari

Majlisda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

U kreativ iqtisodiyot sohasini tizimli rivojlantirish, ijodkorlar va kreativ tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda sohada innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan. Unda kreativ iqtisodiyot subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, ular uchun qulay tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi va kreativ iqtisodiyot parki rezidentlari tomonidan amalga oshiriladigan bevosita kreativ iqtisodiyot sohalari bilan bog'liq bo'lgan loyihalar sifatini yaxshilash hamda chet ellik kontragentlarni jalb qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozlar berish taklif etilyapti.

Bundan tashqari, loyihada soha jozibadorligini va undagi ishtirokchilar sonini oshirish uchun yangi ochilgan kreativ iqtisodiyot subyektlarini rezidentlikka qabul qilishda yengilliklarni nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritilmoqda.

Aytilganidek, qonun loyihasida nazarda tutilayotgan normalar madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish, xususan, mamlakatimiz aholisi va xorijdan tashrif buyuruvchi sayohatlar uchun o'tkazilayotgan madaniy tadbirlar yuqori saviyada tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi**  
Matbuot xizmati.

Surur

BARHAYOT BOBOLAR A'MOLIDIR BU...

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga bag'ishlov

Moziydan yo'lib kelgan bu karvon, Nafasin rostlay deb tin olgan go'yo. Bag'rida quvonchu behisob armon, Olami ichida sirlar bir dunyo.

Bu ko'hna ochunni kezdi oralab, Dargohi keng ekan - behudud, cheksiz. Erti-kech borliqqa egulik tilab, Umrini baxsh etib yashadi shaksiz.

Koinot olamin nigoh ilg'amas, Ibtido qaydayda qayda intihio. Uyg'ongan yuraklar talpinib go'yimas, Xayolga ergashib ketasan nogoh...

Varaqlab qaytadan kechmish kitobin, Ko'rasan kechganin ne sulolalar. Tinglab ajdodlarning so'nmas xitobin, Dilga goh baxt to'lar, goho nolalar.

Asrlar qaridi, yillar qaridi, Bosqinu urushga berolmasdan dosh. Orziqgan qalblarga mehr taratdi, Nur socha boshlarda egzu bir quyosh.

Tangridek, onadek, yurakdek tanho, Faqat bu kenglikda Vatan bitindir. Shu zamin qo'yimda buzruk, muallo, Mag'rur qad ko'targan tarix kutadir.

Bu saroy yurtimning shonidek aziz, Buyuk bobolarning ulug' bahosi. O'zbekning tiklagan shuhrati tengsiz, Yangi O'zbekiston nash'u namosi.

Bunda e'zozlanar ilmu ma'rifat, Ulug'lar yaratgan bebaho meros. Bunda qadr topar tafakkur, hikmat, Mehnatu muhabbat, imonu ixlos.

Bu tuproq shahidlar qonidek toza, Hazrati Usmomning mus'hafidek pok. Egzu o'y, kalomdan olib andoza, Xayrli amaldan to'ralgan idrok.

Bunda devorlar ham moziydan nishon, Shiroq, To'marisdan so'zlar afsona. Qarshimda bo'y cho'zar Xorazm, Kushon, Uyg'onar So'g'd, qadim Shoshu Farg'ona.

Mo'jiza barxanlar osha bo'yaydi, Ipak yo'li bo'yab yo'rtar karvonlar. Toshlar tilga kirib pinhon so'yaydi Tunyuuq bobomdan turkiy dostonlar.

Qalblarda toshadi ilohiy tuyg'u, Nogoh Ka'ba tomon burasan yuzni. Bug'ringa bosasan Buxoriy mangu Sahfalar qatiga berkitgan so'zni.

Bunda davo izlar ming dardga Sino, Beruniy ochmoqda falak sirlarin. Nurlu yo'li ko'rsatar Naqshband, Kubro, Pahlavon Mahmuddek komil pirlarin.

Farg'oiy emasi sarson Kolumbga Tutqazgan Yangi Yer xaritasini. Yassaviy erdi-ku turkiy elimga Ko'rsatgan egulik tariqatini.

Asrlar suroni chalg'itar og'ir, Qilichlar jarangi chekinar abas. Buyuk Amir Temur qarshilar mag'rur, Ko'zlarda chaqnaydi hayratu havas.

Bunda ajdodlarim nomi bardavom, Ulug'bek falakka ko'zin tikkan sha'n. Turkiy tomlarlarda jo'shur ilhom Navoiy tuganda to'rt buyuk devon.

Olis hind elida oh urar Bobur, Dilida yurtining o'chmas armoni. Muqaddas zamindan o'z o'rmin topur, O'zbek diyoriga qayigan Shayboniy.

O, bu el, bu diyor shunchalar mayus, Nelarni ko'rmasdi bu qadim tuproq? Mashrabning bo'g'zini yorgan o'tli bo'z, Nodira bag'rini o'rtagan firoq.

Ne damlar kechmadi qutlug' zamindan, Bu ulus ko'rni ne shohu sultonni. Biroq o'zbek eli ko'rganmi chindan Bugundek farovon, davru davronni?!

Qachondir talangan ko'ngillar mulki, Dunyoga sochilgan javharim, durim, O'lkmaga qayitadi bugun, shukrki, Bo'lib iftixorim, so'nmas g'ururim.

Endi manzillarni ortda qoldirib, Tarix va tamaddun koshonasida, Hayrat-la boqasan alhol tek turib, Yangi Rennessansning ostonasida.

Bu davru davronning toza nafasi, Xalq bilan dillashmoq, yurt bilan payyast. Bunda yosh avlodning hur, erkin sasi, Yuksak marralarni egallar chapdast.

Bunda ijod qaynar, yuksalar mudom Obod mahallalar, ko'rkam binolar. Bu muhtasham Vatan sari shodumon, Quchoq'ini ochar yangi ma'volar.

Farahbaxsh maskanda tirilar tarix, Bugun bo'y ko'rsatar, yashnar istiqbol. Islom tamadduni markazi yangilg' Koz'larda minnatdor quvonch, baxt, iqbol.

Muazzam moziyning, buyuk ishlarining, Barhayot bobolar a'molidir bu. Boqiy qiyofasi aziz kishvarning, Yangi O'zbekiston timsolidir bu.

Tabiati qonuni o'zgaras albat, Azal-abad Sharqdan nur taralusi Avlodlarga ibrat bo'lgisi abad, Odil Yo'boshchining bu tashabbusi.

Fozil bobolarim qurgan kechmishga, Angla ega chiqmoq vaqti kelganin. Zarracha ham haqqing yo'q unutishga, Bu elning nurafshon baxti kelganin.

Uyg'ot, ko'ngillarga tashla qatim nur, Uyg'onsin mudragan, muzlagan qalblar. Uyg'onsin tarixga monand tafakkur, Uyg'onsin elatlar, jamiki xalqlar!

Vatanim, mudom shon-sharafla yasha, Yog'du bo'li, yonib tur qalb nafasidan. To'otib ketmasin beparvo bashar O'mish va kelajak chorrahasidan!

O'tkir RAHMAT.

IQTISODIY YUKSALISH VA IJTIMOYIY FAROVONLIK ASOSI

Tobora keskin tus olayotgan geosiyosiy tangliklar, global ishlab chiqarish va transport-logistika ta'minoti zanjiridagi uzilishlar, savdo tizimi va moliya bozorida beqarorliklar jahon iqtisodiyotini qayta-qayta sinovdan o'tkazmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlarida keltirilishicha, jahon iqtisodiyotining o'sish sur'ati 2025-yilda o'tgan yildagiga nisbatan qariyb 3 foizga pasaygan va 2026-yilda ham o'sish kuzatilmasligi prognoz qilinmoqda. Bu esa joriy yilda ham iqtisodiy barqarorlikka erishish oson kechmasligi, shu bois iqtisodiyotda diversifikatsiyani, shuningdek, investitsiyaviy jozibadorlikni yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Investorlar ishonchi mustahkamlanmoqda

Xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallash mamlakat nufuzini mustahkamlash, investorlar ishonchini oshirish, pirovardida barqaror taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Global bozorlarda xatarlar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda Osiyo bozorlari, ayniqsa, O'zbekiston istiqbolli va investitsiyaviy jozibador makonga aylanmoqda. Shuning uchun ko'plab xorijiy sarmoyadorlar yangi "o'sish nuqtasi" deya mamlakatimiz tomon talpinmoqda.

Tahillarning ko'rsatishicha, o'tgan yili chet el investitsiyalarini jalb etishda yuqori natijaga erishildi. O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar umumiy hajmi 43,1 mlrd. AQSh dollariga yetdi. O'sish sur'ati 2024-yildagiga nisbatan 24 foizga oshdi. Investitsiyalarning salmoqli qismi - 38,5 mlrd. AQSh dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlaridan 4,6 mlrd. AQSh dollari miqdorida moliyaviy resurslar jalb qilindi. Taqqoslash uchun: 2024-yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 36 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgandi. 2025-yilda chet el investitsiyalari hisobiga 301 loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Ularning asosiy qismi qurilish materiallari (o'sish 124 foiz), farmatsevtika (o'sish 114 foiz), chirm-poyabzal (o'sish 106 foiz), qishloq xo'jaligi (o'sish 1,7 barobar) kabi iqtisodiyotning muhim sohalarini ulushiga to'g'ri keldi. Eksport ilk bor 33,8 mlrd. AQSh dollariga yetib, oltin valyuta zaxiralari 60 mlrd. dollardan oshdi.

E'tiborli jihati shundaki, mamlakatimizda investitsiyalar oqimini to'g'ri yo'naltirish, sarmoyadorlarni nafaqat markazlarga, balki olis hududlarga ham jalb etish chora-tadbirlari ko'rilayotgani e'tiborga molik. Sababi, bunday sa'y-harakatlar tufayli o'tgan yilning o'zida 80 ga yaqin tumanlarga 100 mln. AQSh dollaridan ko'p sarmoya kiritildi. Ayni paytda respublikada amalga oshirish salohiyati yuqori bo'lgan istiqbolli 500 dan ortiq investitsiya loyihalari ma'lumotlari shakllantirildi. Shuningdek, 632 ta yirik loyiha doirasida jami 2 mlrd. AQSh dollari doirasida grantlar jalb etildi.

Sarmoyalarni oqimi ko'payishida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan an'anaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi muhim besh yil davomida mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rni ta'sir etuvchi 20 dan ortiq strategiya, 5 ta kodeks, 35 ta qonun, 4 ta konsepsiya va 60 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Uzoqqa bormaylik, birgina 2025-yilda o'tkazilgan navbatdagi investitsiya forumida jahonning qariyb 100 ta mamlakatidan jami 3 mingdan ortiq xorijiy ishtirokchilar qatnashdi. Forum yakunlariga ko'ra, umumiy qiymati 30,2 mlrd. AQSh dollariga teng 144 ta hujjat imzolandi. Uning doirasida tashkil etilgan xalqaro sanoat ko'rgazmasida qatnashgan 85 ta xorijiy va mahalliy kompaniya o'rtasidagi muzokaralar davomida esa umumiy qiymati 1,4 mlrd. dollarlik 40 ta investitsiya va savdo kelishuviga erishilgan fikrimiz tasdiqidir.

2025-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi barqaror saqlanib qolgan energetika, kimyo sanoati, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati va

startaplariga ko'mak berish, ularni ishli va daromadli qilish maqsad-muddaosi mujassam. Buning samarasi o'laroq, bugun Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi nufuzli oliyohlarda tahsil olayotgan talaba yoshlarimiz 500 nafardan, "TOP - 100" talikdagi oliyohlarda o'qiyotgan yigit-qizlarimiz 3,5 ming nafardan oshdi. Yoshlarimiz yaratgan 63 ta startap loyiha AQSh, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga kirib borgan tashiga loyiq. Yana bir muhim ko'rsatkich shuki, yurtimizdagi biznes vakillarining 35 foizini aynan yosh tadbirkorlar tashkil etmoqda.

Bugun xalqaro hamjamiyat O'zbekistonga istiqbolli intellektual mehnat bozori sifatida qaramoqda. Negaki, mehnat bozoriga har yili 600 ming yosh kirib kelyapti. Aholishunoslar o'rganishlariga qaraganda, ushbu ko'rsatkich 2030-yilga borib 1 millionga yetishi mumkin. Bu juda katta imkoniyatdir. Faqat undan oqilona foydalanish uchun yoshlarning o'z salohiyati va qiziqishiga mos ish topishiga sharoit yaratish zarur.

Yoshlar o'rtasidagi so'rovnomna natijasiga ko'ra, ularning uchdan biri tadbirkor bo'lish istagini bildirgan. Shundan kelib chiqib, o'tgan yili navqiron avlod bandligini ta'minlash uchun banklar va Yoshlar ishlari agentligiga 400 mln. dollar yo'naltirildi. "Yoshlar biznesi" va "Kelajakka qadam" dasturlari hisobidan 15 ming nafar yigit-qiz o'z biznes faoliyatini yo'lga qo'yib, 50 ming kishining bandligini ta'minladi.

Yurtimizda mustaqil hayotga qadam tashlayotgan hech bir yosh e'tibordan chetda qolmayapti. Bu haqda gap ketganda, o'tgan yili "yoshlar daftari" doirasida ijtimoiy himoyaga muhtoj 23 385 nafar talabaga ta'limni davom ettirish uchun 70,2 mlrd. so'm shartnoma puli to'lab berilgan, band bo'lmagan 66 212 nafar yosh zamonaviy kasblar va haydovchilikka o'qitilib, 12,2 mlrd. so'm o'quv kursi xarajatlari qoplangani, uyushmagan yoshlarning 2 057 nafari safarbarlik chaqiruvi rezerviga jalb qilindi, 13,9 mlrd. so'm harbiy xizmat badali to'liq to'langani alohida ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, ishsiz va biznesini boshlash istagida bo'lgan 384,4 ming yoshni ko'llab-quvvatlashga qaratilgan "Yoshlar bandligi dasturi" ishlab chiqilib,

Qo'lga kiritilayotgan bu muvaffaqiyatlar zamirida esa puxta o'ylangan, sanoatni diversifikatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, xususiy sektor va biznesga ko'mak berish, shuningdek, yoshlarni yangi va zamonaviy kasblarga yo'naltirish kabi strategik vazifalar turibdi. Bu esa bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini taqdim etib, hozirgi murakkab sharoitga qaramasdan iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik ta'minlanmoqda.

Prezidentimiz ta'бири bilan aytganki, iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlarni, ijtimoiy himoyani kengaytiridik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda.

414,6 ming nafar yigit-qizning bandligi ta'minlangani quvonarlidir.

Inson qadri uchun

Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida nafaqat yoshlarni, balki xotin-qizlarni biznesga keng jalb qilish va tadbirkor ayollarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham yaxlit tizim yaratildi. Ya'ni "Biznesga ilk qadam", "Biznesni yo'lga qo'yish", "Biznesni kengaytirish", "Biznesni yuksaltirish" yo'nalishlari joriy etildi. Pirovardida birgina "Hamroh" tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida 2025-yil 1-maydan boshlab ijobiy kredit tarixiga ega xotin-qizlarga 100 mln. so'mgacha garovsiz kredit ajratish yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan 203 ming nafar tadbirkor ayolga ishbilarmonlik faoliyatini rivojlantirish uchun 15,7 trln. so'm kredit mablag'lari ajratildi. Shundan 105 ming nafariga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 1,7 trln. so'm kredit mablag'lari berildi.

Tadbirkor xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan bunday g'amxo'rlik Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun indeksi"da ham o'z aksini topdi. Gap shundaki, O'zbekiston bu borada 82,5 ball bilan 48 pog'onaga ko'tarilib, 190 davlat ichida 91-o'rinni egalladi. Mazkur natija yurtimizni gender tenglik bo'yicha islohotlarni jadal amalga oshirgan 5 davlat qatoriga kiritdi va Markaziy Osiyoda yetakchilikni ta'minladi. Bu kabi puxta o'ylangan va tizimli chora-tadbirlar xalqimizning ishbilarmonlik ruhini uyg'otib, iqtisodiy barqarorlik ta'minlanishiga katta turki bo'lavotir.

Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati ortib borayotgani tufayli aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, hayot darajasini yanada yaxshilash imkoniyati tobora kengaymoqda. Bu haqda gap ketganda, kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi yuzdan ziyod xizmatlar orqali ijtimoiy himoyaning muhtoj ayolga tizimi yo'lga qo'yilganini e'tirof etish joiz. Buning natijasida 2025-yilda 5 mln. aholi daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushishiga erishildi. Qariyb 1,5 mln. ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqib, ilk bor 1 435 ta mahalla kambag'allikdan xoli hududga aylandi.

Bundan tashqari, aholiga 8 mln. 100 ming kvadrat metrli, 135 ming xonadondan iborat ko'p qavatli uylar topshirildi, shuningdek, biznes subyektlari tomonidan 24 mln. kvadrat metr turarjoy obyektlari barpo etildi. 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi, yana 2 mln. 300 mingga yaqin aholing suv ta'minoti yaxshilandi. Yoki 867 ta "og'ir" mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug'orish uchun ilk bor suv yetib bordi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Qo'lga kiritilayotgan bu muvaffaqiyatlar zamirida esa puxta o'ylangan, sanoatni diversifikatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, xususiy sektor va biznesga ko'mak berish, shuningdek, yoshlarni yangi va zamonaviy kasblarga yo'naltirish kabi strategik vazifalar turibdi. Bu esa bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini taqdim etib, hozirgi murakkab sharoitga qaramasdan iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik ta'minlanmoqda.

Prezidentimiz ta'бири bilan aytganki, iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlarni, ijtimoiy himoyani kengaytiridik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda.

To'lqin ESHNAZAROV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Tahil

Ana shunday sharoitda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan qabul qilingan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan tizimli va keng qamrovli islohotlar o'zining yuksak samaralarini berib, makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda. Sababi, mazkur hujjat asosida ishlab chiqilayotgan davlat dasturlari va ularning amalga oshirilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojida yangi sahifalar ochyapti, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Strategiyani "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi asosida 2025-yilda olib borilgan ulkan ishlar hamda ularning natijalari bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Ya'ni 2025-yil yakunlariga ko'ra, mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi 2024-yildagiga nisbatan 7,7 foiz o'sib, 147,1 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Jumladan, sanoatda 6,8 foiz, qurilishda - 14,0, xizmatlar sohasida - 8,5 va qishloq xo'jaligida 4,4 foiz o'sish kuzatildi. Boshqacha aytganda, yurtimizda yaratilgan yalpi ichki mahsulot hajmi 1 849,7 trln. so'mga yetib, avvalgi yildagiga nisbatan 314,2 trln. so'mga ko'paydi.

Taraqqiyotning xalqaro reytinglardagi aks

Xalqaro reyting va indekslar bugun taraqqiyot darajasini belgilaydigan muhim mezonlarga aylandi. Zotan, bu ko'rsatkichlar o'zida har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy sohalaridagi islohotlari va boshqaruv samaradorligidagi real holatini namoyon etadi. Masalaga ana shu jihatdan yondashadigan bo'lsak, Yangi O'zbekistonda qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanayotgani quvonarlidir.

Gap shundaki, o'tgan yil yakunlari xalqaro reyting va indekslarda aniq natijalar bilan namoyon bo'ldi. Jumladan, "The Heritage Foundation" tomonidan tuziladigan "Iqtisodiy erkinlik indeksi"da O'zbekiston 58 ball to'plab, 184 davlat orasida 100-o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich o'tgan yildagiga qiyoslanganda 2,1 ball o'sib, 3 pog'ona ko'tarilgani oydinlashadi. Natijada mamlakatimiz MDHda 5-o'rin, Markaziy Osiyoda 2-o'ringa chiqdi. Indeksning 12

indikatoridan 8 tasida ijobiy o'sish kuzatilgani yurtimizda iqtisodiy liberalashuv jarayonlari izchil davom etayotganini anglatadi, albatta. O'zbekiston "Organisation for Economic Cooperation and Development" xatarlarni tasniflash tizimida 1999-yildan buyon baholab kelinadi. Unga ko'ra, 2019-yilda valyuta konvertatsiyasi erkinlashtirilishi va suveren reyting olinishi ortidan 5-guruhga ko'tarilgandi. Bugungi kunda yetakchi agentliklar - "S&P Global Ratings", "Moody's" va "Fitch Ratings" - mamlakat reyting darajasini oshirgani yoki kutilmani "ijobiy"ga o'zgartirgani moliyaviy barqarorlik mustahkamlanayotganini tasdiqlaydi. Zero, bu e'tiroflar mustahkam iqtisodiy asosga ega.

Xususan, 2025-yilda kapital qo'yilmalar 591,1 trln. so'mni tashkil etdi. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga 389,9 trln. so'mlik kredit resurslari yo'naltirilgan bo'lsa, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga 131,2 trln. so'mlik kreditlar ajratildi.

Ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz mavqei Jahon bankining "Logistika samaradorligi" indeksida 11 pog'onaga yaxshilanib, 139 davlat ichida 88-o'rinni egalladi. Davlatlarning texnologik yetuklik indeksida 71 pog'ona yuqorilab, dunyoning "TOP - 10" ta mamlakati safiga qo'shildi. "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"da 6 pog'onaga ko'tarilib, 193 davlat orasida 63-o'rin qayd etildi. Bu O'zbekiston "yuqori" guruhdan "juda yuqori" guruhga o'tgan 17 davlat qatoridan joy oldi, deganidir. "Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi"da esa 153 davlat orasida 88-o'ringa ko'tarildi (0,018 ball).

Bu hali hammasi emas. "Sustainable Development Solutions Network" yuritadigan "Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi"da O'zbekiston biryo'la 19 pog'ona ko'tarilib, 166 davlat orasida 81-o'rindan 62-o'ringa chiqdi. 2015 - 2024-yillar natijalariga ko'ra, mamlakat dunyoda beshinchi, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropada birinchi o'rinni egallab, global namuna sifatida qayd etilgani alohida e'tiborga loyiq.

Shu o'rinda aytish joizki, xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlar izchil yaxshilanishi o'z-o'zidan ro'y berayotgani yo'q. Bu, avvalo, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tizimli va xalqchil islohotlar mevasi, qolaversa, milliy baholash mezonlarini xalqaro talablarga moslashtirish, huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish bosida olib borilayotgan ishlar samarasidir. Xususan, so'nggi

Shu kunlarda poytaxtimizda Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan o'tkaziladigan an'anaviy VIII Toshkent xalqaro marafoniga hozirlik ko'rilmoqda.

Advertisement for 'Xalq so'zi' newspaper. Includes contact information for Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV, address in Toshkent, phone numbers, and subscription details. Also features a QR code and a barcode.